“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=382

2026-yil
8-son
avgust
ISSN 3093-8546

O‘tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklash: muammolar va yechimlar

Zarnigor Bebutova,
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi shu‘basi o‘qituvchisi
e-mail: behbudovazarnigor@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada masalasida kelib chiqayotgan muammolar tahlil qilingan bo‘lib, ushbu muammolarga xorijiy tajribani, shuningdek, amaliyotni o‘rganish asosida yechimlar ishlab chiqilgan. O‘tkazib yuborilgan protsessual muddatlarni tiklash uchun belgilangan uch oylik muddat yuridik va jismoniy shaxslarning sud orqali himoyalanish, sudga murojaat qilish huquqlarini amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli apellatsiya, kassatsiya va taftish instansiyalarida o‘tkazib yuborilgan protsessual muddatlarni tiklash uchun belgilangan uch oylik muddatni olib tashlash taklifi berilgan.

Калит сўзлар. protsessual muddat, uzrli deb topish, tiklash, huquqni cheklash.

Аннотация. В данной статье анализируются проблемы, возникающие в связи с этим вопросом, и на основе изучения зарубежного опыта, а также практики разрабатываются решения этих проблем. Трехмесячный срок, установленный для восстановления пропущенных процессуальных сроков, препятствует осуществлению прав юридических и физических лиц на судебную защиту и обжалование в суде. В связи с этим было предложено отменить трехмесячный срок, установленный для восстановления пропущенных процессуальных сроков в апелляционной, кассационной и аудиторской инстанциях.

Ключевые слова. процессуальный срок, признание уважительной причины, восстановление, ограничение прав.

Annotation. This article analyzes the problems arising in this issue, and solutions to these problems are developed based on the study of foreign experience, as well as practice. The three-month period established for the restoration of missed procedural deadlines hinders the exercise of the rights of legal entities and individuals to judicial protection and appeal to the court. Therefore, a proposal has been made to remove the three-month period established for the restoration of missed procedural deadlines in the appellate,

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

cassation and audit instances.

Keywords. procedural deadline, finding excused, restoration, restriction of rights.

Fuqarolik protsessual kodeksining 155-moddasiga koʻra ishda ishtirok etuvchi shaxslar qonunda belgilangan muddatni sud (sudya) uzrli deb topgan sabablarga koʻra oʻtkazib yuborgan boʻlsa, mazkur muddat tiklanadi. Shunga koʻra sud hujjatini qayta koʻrish instansiyalari, ya’ni apellatsiya, kassatsiya va taftish instansiyalarida shikoyat berish muddati oʻtkazib yuborilgan boʻlsa, oʻtkazib yuborilgan muddatni tiklash toʻgʻrisida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish mumkinligi belgilangan. 2023-yil 25-dekabrda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining “Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonuni bilan sud hujjatlarini qayta koʻrish instansiyalarida koʻrish uchun shikoyat berish muddatlarini oʻtkazib yuborganda ushbu muddatni tiklash uchun shikoyat muddati tugagan paytdan e’tiboran uch oy ichida muddatni tiklash toʻgʻrisida iltimosnoma kiritish mumkinligi belgilandi. Ushbu Qonun 2024-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kirgan.

Xususan, apellyatsiya shikoyati (protesti) sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida berilishi mumkin. Oʻtkazib yuborilgan muddat, agar iltimosnoma hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran uch oydan kechiktirmay berilgan va muddatni oʻtkazib yuborish sabablari uzrli deb topilgan boʻlsa, apellyatsiya shikoyati (protesti) berayotgan shaxsning iltimosnomasiga koʻra apellyatsiya instansiyasi sudining sudyasi tomonidan tiklanishi mumkin. Xuddi shunday norma kassatsiya instansiyasida ham mavjud boʻlib, kassatsiya shikoyati (protesti) birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran olti oy ichida berilishi mumkin.

Oʻtkazib yuborilgan kassatsiya shikoyati (protesti) berish muddati shikoyat (protest) berayotgan shaxsning iltimosnomasiga koʻra kassatsiya instansiya sudining sudyasi tomonidan, agar iltimosnoma kassatsiya shikoyati (protesti) berish muddati oʻtgan kundan e'tiboran uch oydan kechiktirmay berilgan boʻlsa va oʻtkazib yuborilgan muddat sud tomonidan uzrli deb topilsa, tiklanishi mumkin.

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori, ajrimi, qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran bir yil ichida beriladi. Taftish tartibidagi shikoyat (protest) berishning oʻtkazib yuborilgan muddati shikoyat (protest) bergan shaxsning iltimosnomasi boʻyicha sud (sudya) tomonidan, agar iltimosnoma shikoyatni (protestni) berish muddati oʻtgan kundan e'tiboran **uch oy ichida** berilgan va shikoyatni (protestni) berish muddati oʻtkazib yuborilishining sabablari uzrli deb topilgan boʻlsa,

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

tiklanishi mumkin.

Ushbu qoida belgilangunga qadar, ya’ni 2024-yil 1-yanvarga qadar o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash uchun faqatgina kassatsiya instansiyasida iltimosnoma kassatsiya shikoyati (protesti) berish muddati o‘tgan kundan e'tiboran uch oydan kechiktirmay berilishi belgilangan edi.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra apellatsiya muddatining o‘tkazib yuborilishi yoki o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash to‘g‘risidagi iltimosnomaning rad etilishi muayyan huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydi. Chunki sudning qonuniy kuchga kirgan va apellyatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ustidan kassatsiya shikoyati berilishi mumkin. Ammo agar kassatsiya shikoyati berish muddati o‘tkazib yuborilsa va o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash to‘g‘risidagi iltimosnoma qanoatlantirilmasa, shikoyat beruvchi taftish shikoyatini bera olmaydi.

Xuddi shunday qoidalar Iqtisodiy protsessual kodeksida ham mavjud. Xususan o‘tkazib yuborilgan apellatsiya berish muddatini tiklash to‘g‘risidagi iltimosnoma hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran ikki oydan kechiktirmasdan, o‘tkazib yuborilgan kassatsiya muddatini tiklash to‘g‘risidagi iltimosnoma va o‘tkazib yuborilgan taftish muddatini tiklash to‘g‘risidagi iltimosnomalar ushbu muddatlar o‘tgan paytdan e’tiboran uch oy ichida berilishi lozim.

Nega qonunchilikda bunday qoidalar belgilangan?

Ko‘pchilik olimlar o‘tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklashda chegara bo‘lishi kerakligini ta’kidlashadi.

“O‘tkazib yuborilgan muddatni tiklashda sudya ariza beruvchining zarur protsessual harakatlarni amalga oshirish huquqlari va oqilona sud muddatlariga rioya qilish o‘rtasida muvozanatni saqlashi kerak [1]”.

Xorijiy davlatlar qonunchiligida bu holat bo‘yicha qanday normalar mavjud?

Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksining 233-moddasida belgilangan protsessual muddatni o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborgan tomon avvalgi holatga qaytarishni so‘rash huquqiga ega.

O‘tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklashni so‘rash muddati – Germaniya FPKsining 234-moddasi shunday nomlangan.

Ushbu moddaga ko‘ra (1) Huquqni tiklash (avvalgi holatni tiklash) to‘g‘risidagi ariza **ikki haftalik** muddat ichida topshirilishi kerak. Agar taraf apellyatsiya shikoyatini asoslash, kassatsiya shikoyatini asoslash, apellyatsiya shikoyatini ish yurituviga qabul qilishni rad etish to‘g‘risidagi ajrim ustidan shikoyat (Nichtzulassungsbeschwerde) yoki huquq masalalari bo‘yicha shikoyat (Rechtsbeschwerde) berish muddatini o‘tkazib yuborishiga biron bir to‘sqinlik bo‘lgan bo‘lsa, bu muddat **bir oy**ni tashkil etadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

(2) Muddat to‘sqinlik (bardosh berib bo‘lmaydigan holat) bartaraf etilgan kundan boshlanadi.

(3) O‘tkazib yuborilgan muddat tugaganidan boshlab bir yil o‘tgach, huquqni tiklashni so‘rab qayta ariza berib bo‘lmaydi [2].

Germaniya qonunchiligidagi muhim jihat “Muddat to‘sqinlik (bardosh berib bo‘lmaydigan holat) bartaraf etilgan kundan boshlanadi” degan qoidaning mavjudligi. Milliy qonunchiligimizda ham ushbu normani belgilash maqsadga muvofiq bo‘lardi

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksining 321-moddasiga ko‘ra:

“6. O‘tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklash to‘g'risidagi ariza apellyatsiya sudiga beriladi. O‘tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklash to‘g‘risidagi ariza berish bilan bir vaqtda, muddat o‘tkazib yuborilgan zarur protsessual harakat (shikoyat berish, hujjatlarni taqdim etish) bajarilishi kerak. Sud tomonidan asosli deb topilgan sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan apellyatsiya yoki iltimosnoma berish muddati manfaatdor tomonning arizasiga binoan apellyatsiya sudi sudyasi tomonidan tiklanishi mumkin [3]”.

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksining 375.2-moddasiga ko‘ra:

“2. Kassatsiya shikoyati yoki iltimosnoma berishning o‘tkazib yuborilgan muddati, sud tomonidan asosli deb topilgan sabablarga ko‘ra, manfaatdor tomonning arizasiga binoan Respublika Oliy sudi, Hudud, Viloyat sudi, Federal shahar sudi, Avtonom viloyat sudi yoki Avtonom okrug sudi sudyasi tomonidan tiklanishi mumkin.

O‘tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklash to‘g‘risida ariza berish bilan bir vaqtda, muddat o‘tkazib yuborilgan kassatsiya shikoyati yoki iltimosnoma beriladi [4]”

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Rossiya qonunchiligida o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash uchun muddat belgilanmagan. Ya’ni shikoyat berish muddati mavjud, lekin bu muddatni o‘tkazib yuboradigan bo‘lsa, uni tiklash uchun muddat belgilanmagan. Ammo “Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksining 112-moddasida apellyatsiya berishning o‘tkazib yuborilgan muddatini tiklash uchun muddatlar yo‘qligiga qaramay, uning so‘zma-so‘z talqini Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi va xalqaro shartnomalar qoidalarini buzadi, chunki sud hujjatlarini cheksiz qayta ko‘rib chiqishga adolatli sud jarayoni prinsipi va huquqiy aniqlik prinsipiga zid bo‘lgani uchun yo‘l qo‘yilmaydi [5]” – deb ta’kidlaydi T.I. Afanaseva va T.I. Otcheskaya o‘zlarining “Условия восстановления срока для апелляционного обжалования в гражданском процессе по ходатайству лица, не участвовавшего в деле” nomli maqolasida

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рябова О.А., Рябов П.Р. Проблемные аспекты восстановления сроков обжалования в гражданском процессе //Аграрное и земельное право. 2024. № 4(232). С. 230-232. http://doi.org/10.47643/1815-1329_2024_4_230.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

2. Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksi https://www.gesetze-im-internet.de/zpo/
3. “Гражданский процессуальный кодекс Российской Федерации” от 14.11.2002 N 138-ФЗ (ред. от 09.04.2026)
4. “Гражданский процессуальный кодекс Российской Федерации” от 14.11.2002 N 138-ФЗ (ред. от 09.04.2026)
5. Отческая Т.И., Афанасьева Т.И. Условия восстановления срока для апелляционного обжалования в гражданском процессе по ходатайству лица, не участвовавшего в деле // Пролог: журнал о праве / Prologue: Law Journal. – 2019. – № 4.